


ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- fevral holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

41 460

119,9 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

37 478

119,8 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)


521

80,5 %

Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4

24 271




Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

2 649



Oilaviy korxona

188



Unitar korxona

5 122



Xususiy korxona

40



Aksiyadorlik jamiyati


308



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida, birlikda)


5





Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (yanvar oyida, birlikda)




Jami faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **41,1** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat koʻrsatish
■ Oʻrmon xoʻjaligi
■ Baliq xoʻjaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


7



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **29,1** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



123



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

8 250



Ishlab chiqarish sanoati

51



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

158



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlari soni 8 582 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,1 % ga oshdi.

Jami sanoat korxona va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 29,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,1 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 10,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 34,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 18,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) o'sishidir.


Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

8




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,0** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




11,9 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




16,5 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




58,3 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **10,0** foizga oshdi




Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


9



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 3 121 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,0 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – fuqarolik obyektlarini qurish o'tgan yilga nisbatan – 35,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,6 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari o'tgan yilga nisbatan – 34,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,7 %) hamda bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 1,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 62,7 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)






2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 10 484 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,1 % ga oshdi. Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 26,6 % ga (jami savdodagi ulushi 65,3 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 22,7 % ga (jami savdodagi ulushi 27,6 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 35,2 % ga (jami savdodagi ulushi 7,1 %) o'sishidir.



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


10




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


11




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

878



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

17



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

7



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



119

yashash bo'yicha xizmatlar



1 693

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 812 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,5 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 9,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,4 %), yashash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 5,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,6 %) o'sishidir.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


13



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


14




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,5** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




23,8
foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




44,4
foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



2,8
foizga oshdi




Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


15




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,4** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofimalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




12,8
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




4,0
martaga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan
2,0 martaga oshdi




Xususiy korxonalar



2020- y.


2021- y.






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofimalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra 2 920 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 278 taga yoki 77,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 649 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 081 taga yoki 68,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 35 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 94 taga yoki 72,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra 26 277 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 424 taga yoki 26,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 24 271 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 004 taga yoki 26,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 447 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26 taga yoki 5,5 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra 369 tani tashkil etib, ulardan 348 tasi yoki 94,3 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 42 taga yoki 12,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida viloyatimizda 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida, birlikda)



	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Rossiya Federatsiyasi	76	50	26
Qirg'iz Respublikasi	38	23	15
Belarus Respublikasi	9	5	4
Qozog'iston Respublikasi	6	2	4
Ozarbajjon Respublikasi	5	4	1
Ukraina Respublikasi	3	1	2
Tojikiston Respublikasi	2	2	0
Turkmaniston Respublikasi	1	0	1


O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda Andijon viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 21,8 %, Qirg'iz Respublikasi 10,9 %, Belarus Respublikasi 2,6 %, Qozog'iston Respublikasi 1,7 % va Ozarbajjon Respublikalarida 1,4 % ga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

20



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	153	176	230	310	348
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3	6	17	25	26
Sanoat	118	136	161	184	197
Qurilish	7	7	7	20	22
Savdo	8	12	23	36	47
Tashish va saqlash	4	3	2	2	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	5	7	9	9
Axborot va aloqa	0	0	0	5	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	1	5	5
Boshqa turlar	6	6	12	24	34

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

21



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

22


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Andijon viloyati	348	213	135
Oltinko'l	20	14	6
Andijon	29	21	8
Baliqchi	8	3	5
Bo'ston	7	7	0
Buloqboshi	13	8	5
Jalolquduq	13	7	6
Izboskan	7	4	3
Ulug'nor	7	5	2
Qo'rg'ontepa	8	7	1
Asaka	20	15	5
Marhamat	15	8	7
Shahrixon	25	16	9
Paxtaobod	8	6	2
Xo'jaobod	13	10	3
Andijon sh.	137	69	68
Xonobod sh.	18	13	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahrida 137 ta (jamidagi ulushi 39,4 %), Andijon 29 ta (8,3 %), Shahrixon 25 ta (7,2 %), Asaka va Oltinko'l tumanlarida 20 tadan (5,8 %), Xonobod shahri 18 ta (5,2 %), Marhamat 15 ta (4,3 %), Xo'jaobod, Jalolquduq va Buloqboshi tumanlarida 13 tadan (3,7 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

23



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Andijon shahri (31,2 %), Asaka (9,0 %), Andijon (7,2 %), Shahrixon (6,8 %), Oltinko'l (5,2 %), Qo'rg'ontepa (5,1 %), Izboskan (5,0 %), Baliqchi (4,9 %), Marhamat (4,5 %), Jalolquduq (4,0 %), Paxtaobod (3,8 %), Xo'jaobod (3,6 %), Buloqboshi (3,1 %), Bo'ston (2,8 %), Ulug'nor (2,0 %), tumanlari va Xonobod shahri (1,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar oyida, birlikda)


2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Andijon shahri (30,5 %), Andijon (11,3 %), Asaka (6,7 %), Oltinko'l (6,1 %), Izboskan (6,0 %), Shahrixon (5,2 %), Xo'jaobod (5,2 %), Baliqchi (5,0 %), Paxtaobod (4,6 %), Bo'ston (4,2 %), Qo'rg'ontepa (3,7 %), Jalolquduq (3,1 %), Buloqboshi (2,9 %), Marhamat (2,5 %), Ulug'nor (1,5 %) tumanlari va Xonobod shahri (1,5 %) ulushiga ega.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

24



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Andijon shahri (35,7 %), Asaka (7,3 %), Shahrixon (6,9 %), Andijon (6,7 %), Izboskan (5,0 %), Oltinko'l (4,7 %), Xo'jaobod (4,4 %), Baliqchi (4,4 %), Qo'rg'ontepa (4,3 %), Marhamat (4,3 %), Paxtaobod (4,1 %), Jalolquduq (3,9 %), Buloqboshi (2,9 %), Ulug'nor (1,8 %), Bo'ston (1,7 %) tumanlari va Xonobod shahri (1,9 %) hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi (2021- yil 1- fevralvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

25




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar oyida, birlikda)


26




2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Bo'ston (34,3 %), Andijon shahri (11,4 %), Izboskan (11,4 %), Andijon (11,4 %), Shahrixon (8,6 %), Asaka (5,7 %), Qo'rg'ontepa (5,7 %), Oltinko'l (5,7 %), Jalolquduq (2,9 %) va Baliqchi (2,9 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar oyida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
regisrlarni yuritish bo'limi
Tel.: (74) 228-29-74**